



IZZAT SULTON NAZARIYOTCHI OLIM SIFATIDA

Farg‘ona davlat universiteti filologiya va tillarni o‘qitish:

o‘zbek tili yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Abduhalimova Sitora Suhbatjon qizi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Izzat Sultonning o‘zbek adabiyotshunosligidagi o‘rni va ilmiy faoliyati yoritiladi. Asosiy e‘tibor uning nazariyotchi olim sifatidagi faoliyatiga qaratilgan bo‘lib, adabiyot nazariyasiga oid qarashlari, badiiy asarni tahlil qilish usullari hamda ilmiy yondashuvi sodda va tushunarli tarzda bayon etiladi. Maqolada olimning turli yo‘nalishlardagi ijodi — adabiyotshunoslik, tanqidchilik, dramaturgiya va navoiyshunoslik sohalaridagi ishlari umumiy tarzda ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, uning “Adabiyot nazariyasi” asari hamda Alisher Navoiy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlari orqali nazariy fikrni rivojlantirishdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, maqolada Izzat Sultonning adabiy tanqid rivojiga qo‘shgan hissasi, badiiy asarning mazmuni va shaklini birgalikda o‘rganish zarurligi haqidagi qarashlari ham tahlil qilinadi. Uning ilmiy merosi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolayotgani va adabiyotshunoslikni o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilayotgani alohida ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: Izzat Sulton, adabiyotshunoslik, nazariyotchi olim, adabiyot nazariyasi, badiiy tahlil, metodologiya, adabiy tanqid, o‘zbek adabiyoti, dramaturgiya, navoiyshunoslik, badiiy obraz, estetik qarashlar, ilmiy meros, tahlil usullari

KIRISH. Izzat Sulton (1910–2001) – o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchilik olamining yetuk namoyandasi bo‘lib, ilmiy va adabiy faoliyati bilan o‘zbek madaniyati rivojiga sezilarli hissa qo‘shgan. U 1910-yilda Qirg‘izistonning O‘sh shahrida tug‘ilgan va butun umrini ilmiy izlanishlarga, adabiyot nazariyasi va tanqidchilikka bag‘ishlagan. Toshkentda faoliyat yuritgan olim ko‘plab ilmiy asarlar yaratgan, shuningdek o‘zbek adabiy jarayonini tizimli o‘rganish va nazariy asosda



tahlil qilishga alohida e'tibor bergan. Izzat Sultonning ilmiy faoliyati keng qamrovli bo'lib, unga dramaturgiya, publitsistika, adabiyotshunoslik va tanqidchilik sohalaridagi ishlar kiradi. U mumtoz va zamonaviy o'zbek adabiyotini, xalq og'zaki ijodini, badiiy obrazlar va estetik hodisalarni chuqur tahlil qilgan. Uning ilmiy ishlari nafaqat adabiyotshunoslik metodologiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan, balki yosh tadqiqotchilar uchun ham tizimli nazariy yondashuvni shakllantirgan. Shuningdek, Izzat Sulton dramaturg sifatida sahna asarlarini yaratgan, tanqidchi sifatida esa adabiy jarayonlarni o'rganib, adabiyotning ijtimoiy va estetik jihatlarini uyg'un ravishda tahlil qilgan. Shu bois, uning ilmiy va adabiy faoliyati adabiyotshunoslik olamida nafaqat tarixiy, balki metodologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Shu keng qamrovli va izchil faoliyat Izzat Sultonning o'zbek adabiyotshunosligida nazariyotchi olim sifatida tutgan o'rnini yanada mustahkamlaydi va uning ilmiy merosini chuqur o'rganishga asos yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Izzat Sultonning adabiy va ilmiy merosi juda keng. U nafaqat dramaturgiya, publitsistika va tanqidchilik sohalarida faoliyat yuritgan, balki ilmiy asarlar orqali o'zbek adabiy jarayonini tizimli o'rganishga katta hissa qo'shgan. Uning ijodi ko'plab kitoblar, maqolalar va darsliklarni o'z ichiga oladi, ular o'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidining rivojlanishida muhim manba hisoblanadi. Izzat Sultonning ijodiy faoliyati asosan XX asrning 30-yillaridan boshlangan bo'lib, aynan shu davr uning ilmiy shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. 30-yillarning oxirlarida u yaratgan "Adabiyot nazariyasi" o'quv qo'llanmasi o'sha davr adabiy jamoatchiligi tomonidan katta yangilik va muhim ilmiy hodisa sifatida baholangan. Biroq bu asar birdaniga yuzaga kelmagan, balki muallifning ko'p yillik izlanishlari va tajribasi mahsuli bo'lgan. Yosh tanqidchi sifatida Izzat Sulton dastlab turli yo'nalishlarda izlanish olib bordi. Uning ilk qiziqishlari musiqa masalalari, roman janrining o'ziga xos jihatlari, dramaturgiya xususiyatlari hamda adabiy tanqidning maqsad va vazifalarini o'rganishga qaratilgan edi. Shu davrda u "O'z musiqamizni tuzish yo'lida", M. Sholoxovning "Ochilgan qo'riq" romaniga bag'ishlangan maqola, "20 yil burungi Gamlet", "Chexov hikoyachiligi" kabi qator ilmiy-tanqidiy



maqolalarni yaratdi. Bundan tashqari, "Nomus va muhabbat" dramasi yuzasidan yozilgan taqriz hamda "Nega tomoshabin beparvo?" maqolasi uning dramaturgiya janriga jiddiy e'tibor qaratganini ko'rsatadi. "Adabiyotda obraz yaratish yo'llari" va "Badiiy adabiyotda til" kabi maqolalari esa olimning nazariy tafakkuri bosqichma-bosqich shakllanib borganini va keyinchalik yaratilgan "Adabiyot nazariyasi" asarining puxta ilmiy tayyorgarlik natijasi ekanini tasdiqlaydi. Ushbu maqolalar keyinchalik mazkur asarning muhim tarkibiy qismlariga aylangan. 1940-yilda e'lon qilingan "O'zbek tanqidchiligi haqida" maqolasi ham Izzat Sultonning ilmiy qarashlarida muhim o'rin tutadi. Unda davrga xos ayrim cheklovlar sezilsa-da, ilgari surilgan chuqur nazariy fikrlar muallifning bu sohada yetuk va istiqbolli mutaxassis sifatida shakllanib borayotganini yaqqol namoyon etadi.

"«Adabiyot nazariyasi» (1939) kitobi O'zbekiston madaniy-adabiy hayotida ulkan voqea bo'ldi. Darslik 1940-yilda eng yaxshi ilmiy va badiiy asarlar uchun o'tkazilgan tanlovda birinchi mukofot bilan taqdirlandi. Asar ko'p yillar mobaynida faqat o'rta maktab uchungina emas, respublika oliy o'quv yurtlarida ham asosiy darslik vazifasini bajardi. Izzat Sulton o'zbek adabiyotshunosligida A.Sa'diy va Fitratdan keyin adabiyot nazariyasidan darslik yaratgan uchinchi ustoz sanaladi. Olim shuhrati respublikamiz tashqarisida ham keng yoyildi"¹

Izzat Sultonning maqola va tadqiqotlarida XX asr o'zbek adabiy tanqidi shakllanishining o'ziga xos jihatlari, badiiy mahorati va uslubiyati muhim mavzu sifatida ko'rib chiqilgan. U Otajon Hoshim, Sotti Husayn, Abdurahmoni Sa'diy, Olim Sharafiddinov, A'zam Ayyub kabi tanqidchilarning ijodiy yo'llarini tahlil qilib, ularning ilmiy qarashlarini ham o'rganadi. Shu jumladan, O. Hoshimning adabiyot nazariyasi, S. Husaynning tanqidiy masalalari, A. Sa'diy va O. Sharafiddinovning maktab darsliklari va qo'llanmalarni yaratishdagi murakkab va ba'zan ziddiyatli ishlari atroflicha ko'rib chiqilgan. Izzat Sulton ularning izlanishlarini, realistik o'zbek adabiy tanqidchiligining shakllanishida yuzaga kelgan ilmiy-nazariy muammolarni hal etishga qaratilgan harakat sifatida talqin qiladi."Shuni qayd qilish

¹ B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent – 2012. 180-bet



kerakki, O‘zbekistonda adabiy tanqidning tug‘ilishi birinchi navbatda «tanqid nima?» savoliga javob izlashdan boshlandi. Tanqidiy tafakkurning Oktabrdan keyingi boshlang‘ich yillari hali ancha ibtidoiy bo‘lishiga qaramay, yuqoridagi savolga berilgan javoblar (sodda bo‘lsa-da) asosan to‘g‘ri edi”² degan xulosaga keladi Izzat Sulton.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Manbalarda qayd etilishicha, Izzat Sulton o‘z ilmiy faoliyatini asosan uch muhim yo‘nalishda olib borgan: zamonaviy adabiyot muammolarini o‘rganish, mumtoz adabiyot tarixini tadqiq etish hamda adabiyot nazariyasiga oid masalalarni yoritish. Uning ilmiy merosida Alisher Navoiy shaxsi va ijodi alohida o‘rin egallaydi. Olimning bu boradagi dastlabki maqolalaridan biri — “Mir Alisher Navoiy” (1938) qisqa fursatda adabiy jamoatchilik e‘tiborini tortdi. Shu yili yaratilgan “Rustaveli va Navoiy” maqolasi hamda keyinchalik yozilgan “Navoiy tadqiqotchilari” (1941) nomli ishi ushbu yo‘nalishdagi izlanishlarning izchil davomidir. Oradan qariyb o‘ttiz yil o‘tib yaratilgan “Navoiyning qalb daftari” asari hamda undan oldin yozilgan “Alisher Navoiy” dramasi aynan shu dastlabki tadqiqotlarga tayanadi. Izzat Sultonning navoiyshunoslik sohasidagi muhim xizmatlaridan biri “Mezon ul-avzon” va uning tanqidiy matniga bag‘ishlangan tadqiqoti hisoblanadi. Aynan shu mavzuda u 1949-yilda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Uning uzoq yillar davom etgan ilmiy izlanishlari natijasi sifatida yuzaga kelgan “Navoiyning qalb daftari” asari jahon navoiyshunosligiga qo‘shilgan salmoqli hissalaridan biri bo‘ldi. Tadqiqotchilar ta’kidlashicha, ushbu asarda muallifning o‘ziga xos ilmiy uslubi, faktlarni xolisona tahlil qilish qobiliyati va mantiqiy asosda fikr yuritish mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu jihatlari bilan bu asar Izzat Sultonning Navoiy haqidagi boshqa tadqiqotlaridan ajralib turadi. Mazkur kitob mazmuni, shakli va janriy xususiyatlari bilan ham o‘zbek adabiyotshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Olim ulug‘ shoirning barcha asarlarini hamda uning zamondoshlari — tarixchi va adabiyotshunos olimlarning manbalarini chuqur o‘rganib, Alisher Navoiyning hayoti

² O‘zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. 1-tom. 1987. 54-bet.



va ijodiy faoliyatini, ko‘plab asarlarining yaratilish tarixini ilmiy asosda tiklashga muvaffaq bo‘ldi. U Alisher Navoiy haqidagi bir maqolasida shunday ta’kidlab o‘tadi: "O‘tmishdagi buyuk siymolarning taqdirida ajib bir o‘xshashlik bor: Dante hayotligida yetisha olmagan shuhratga vafotidan keyin muyassar bo‘lish umidida edi. Balzak "Buyuk kishilarning yolg‘izligi" haqida nadomat chekib dunyodan o‘tdi. Pushkin va Lermontovlarni go‘rga tiqmaguncha rus podshohlarining ko‘ngli o‘rniga tushmadi. Muqimiyning joniga hech kim qasd etmagan bo‘lsa ham, beqadrlik alami, xuddi Dantesning o‘qidek, shoirning qalbidan qon tirqiratgan edi. Buyuklar orasida Alisher Navoiy omadliroq chiqdi: zamonasi uning qudratli talantini va ulug‘ xizmatlarini tan oldi. Navoiy hayotligidayoq xalq ichida, aziz va hukmronlar orasida baobro‘ bo‘ldi. Aqlli, tadbirkor va salohiyatli Husayn Boyqaro unga o‘z devonidan eng mo‘tabar joy ko‘rsatdi, bolalikda u bilan boshlangan do‘stlik ipini to umrining oxirigacha uzmaslikka tirishdi. Zamonasining boshqa bir ulkan hukmroni, shoir va mutafakkir Zahiriddin Muhammad Boburning Navoiyga bergan yuksak bahosi bilan xalq og‘zaki ijodida Alisherning donoligi, haqiqatparvarligi va adolatparvarligi haqida son-sanoqsiz hikoyalar va latifalarning tug‘ilishi, hatto Navoiyning go‘zal Guliga muhabbati haqida ham ajoyib afsonaning maydonga kelishi orasida uzviy bog‘lanish bor. Bu — Alisher Navoiy siymosining barcha ijtimoiy tabaqalar zehnidan mahkam o‘rin olganining shohididir"³.

Bundan tashqari, Izzat Sulton yetuk dramaturg va kinossenariy muallifi sifatida ham samarali ijod qilgan. Uning o‘nga yaqin dramasi O‘zbek Milliy akademik teatr sahnasida namoyish etilgan. Uyg‘un bilan hamkorlikda yaratilgan "Alisher Navoiy" pyesasi esa o‘zbek dramaturgiyasi va sahna san’atining eng yuksak namunalaridan biri sifatida e’tirof etilib, mualliflarga katta shuhrat keltirdi. "Izzat Sulton o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi shakllanishi va kamoloti jarayonining xilma-xil sohalari, turli muammolari bilan shug‘ullandi. I. Sultonov ilmiy kashfiyotlaridan biri - ijodiy metod masalasidagi kuzatishlarida ko‘zga tashlanadi. Uning 50-yillarning o‘rtalarida himoya qilgan doktorlik dissertatsiyasi

³ "Buyuk ustod" nomli maqolasi. "O‘zbekiston adabiyoti va san’ati". 2009-yil.11-soni.



ham ayni shu mavzuda edi. Olim «Realizmning zamonaviyligi» (1963) maqolasida 60- yillar adabiyotida yuz berayotgan realizmning chuqurlashuv jarayonlarini yoritishga intildi. Bu o'zbek adabiyotining shu vaqtlardan e'tiboran nainki sotsrealizmga, balki umuman, realizm yo'lga borishga ham intilayotganini ta'kidlovchi dastlabki mulohazalardan biri edi"⁴.

XULOSA. Izzat Sulton o'zbek adabiyotshunosligi tarixida ko'p qirrali ijodkor sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa-da, uning ilmiy merosida eng muhim va barqaror yo'nalish — bu nazariyotchi olim sifatidagi faoliyatidir. U adabiy jarayonni oddiy tasvirlash yoki baholash bilan cheklanmay, uni ilmiy asosda tahlil qilish, adabiyotning ichki qonuniyatlarini ochib berish, badiiy asarning estetik mohiyatini izohlashga intildi. Olimning ilmiy izlanishlari natijasida o'zbek adabiyotshunosligida nazariy tafakkur rivojlandi, adabiy tanqid va tahlilning metodologik asoslari mustahkamlandi. Uning “Adabiyot nazariyasi” kabi asarlari nafaqat o'z davri uchun, balki bugungi adabiyotshunoslik uchun ham muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, uning mumtoz adabiyot, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi yondashuvi ham chuqur nazariy asosga ega bo'lib, navoiyshunoslik rivojiga katta hissa qo'shdi. Izzat Sulton o'z tadqiqotlarida badiiy asarni kompleks tarzda — mazmun, shakl, obraz, til va uslub birligida o'rganish zarurligini asoslab berdi. Bu esa uni oddiy adabiyotshunos yoki tanqidchidan farqli ravishda, chuqur fikrlovchi va tizimli yondashuvga ega nazariyotchi olim sifatida e'tirof etishga imkon beradi. Umuman olganda, Izzat Sultonning ilmiy merosi o'zbek adabiyotshunosligida nazariy fikrning shakllanishi va rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Uning ishlari bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo'qotmagan holda, adabiyot nazariyasini chuqur o'rganishda mustahkam manba bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

⁴ B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent – 2012. 181-bet



2. Sulton, I. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot.
3. Sulton, I. Mezon ul-avzon va uning tanqidiy teksti. – Toshkent.
4. Sulton, I. “O‘zbek tanqidchiligi haqida” // ilmiy maqola, 1940.
5. Sulton, I. Alisher Navoiy (drama). – Toshkent.
6. Qo‘shjonov, M. Izzat Sulton ijodi haqida ilmiy qarashlar. – Toshkent.
7. Karimov, N. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti.
8. Ziyouz.com sayti materiallari: Izzat Sulton hayoti va ijodi.
9. Arxiv.uz sayti materiallari: Izzat Sulton – nazariyotchi olim.
10. B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Qahramonov, Sh.Axmedova. O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi. Toshkent – 2012.